# OLIY TA’LIM TIZIMIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI ZO‘RAVONLIKNI OLDINI OLISHGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Sultanova Nilufar Raxmatullayevna
*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

***Anotatsiya:*** *mazkur maqolada pedagog kadrlarni tayyorlashda ularning zo‘ravonlikka qarshi kurashish kompetensiyalarini shakllantirish va bo‘lajak pedagoglarni zo‘ravonlikni oldini olishga tayyorlashning faoliyatini boshqarish mexanizmini ishlab chiqish muhimligi haqida fikrlar yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *bulling, cyber bulling, psixologik bosim, “Metodologiya”, normativ metodologiya, tavsifiy metodologiya, UNICEF, UNESCO, moddiy-texnik, psixologik, ijtimoiy, sharoit,pedagogik shart-shaoit, metodik sharoitlar.*

***Abstract****: This article discusses the importance of developing a management mechanism for fostering competencies to combat violence and preparing future educators to prevent violence during the training of teaching personnel.*

***Keywords****: bullying, cyberbullying, psychological pressure, “Methodology”, normative methodology, descriptive methodology, UNICEF, UNESCO, material-technical, psychological, social, conditions, pedagogical conditions, methodological conditions.*

***Аннотация:*** *В статье рассматривается важность разработки механизма управления формированием компетенций по противодействию насилию и подготовки будущих педагогов к его предотвращению в процессе профессиональной подготовки педагогических кадров.*

***Ключевые слова:*** *буллинг, кибербуллинг, психологическое давление, «методология», нормативная методология, дескриптивная методология, ЮНИСЕФ, ЮНЕСКО, материально-технические, психологические, социальные условия, педагогические условия, методологические условия.*

Zamonaviy jamiyatda ta’lim-tarbiya tizimining asosiy vazifalaridan biri – zo‘ravonlik, tajovuz va ijtimoiy noxush xatti-harakatlarning oldini olishga xizmat qiladigan sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishdir. Maktab muhitida yuzaga keladigan zo‘ravonlik holatlari (bulling, cyber bulling, psixologik bosim) nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilarning ham ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, pedagog kadrlarni tayyorlashda ularning zo‘ravonlikka qarshi kurashish kompetensiyalarini shakllantirish alohida e’tiborni talab qiladi.

“Metodologiya (yunoncha “metod” va “logiya” so‘zlaridan kelib chiqqan) - bu metodlar va faoliyat vositalari haqidagi ta’limot sifatida ta’riflanadi” [152]. Kengroq ma’noda esa, metodologiya har qanday faoliyatning ajralmas va zaruriy komponenti hisoblanadi. Metodologik bilimlar mohiyatiga ko‘ra ikki asosiy ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: birinchisi — normativ metodologiya bo‘lib, u faoliyatning mazmuni va ketma-ketligini belgilab beruvchi normalarni ifodalaydi; ikkinchisi esa — tavsifiy metodologiya bo‘lib, amalda bajarilgan faoliyat mazmunini tahlil qilish va uni tavsiflashga qaratilgan bilimlarni o‘z ichiga oladi. Ikkala yondashuvning ham asosiy vazifasi ob’yektni anglash va uni amaliy jihatdan o‘zgartirish jarayonlarini ichki tashkil etish va tartibga solishga qaratilgan. Shu bilan birga, metodologiya bilim olish va uni amaliyotda qo‘llash jarayonida faoliyatning asosiy tamoyillarini belgilaydi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi” [152].

“Metodologiya” tushunchasi turli faoliyat turlari va darajalari nuqtai nazaridan bir oz farqli ma’nolarda qo‘llaniladi. Umuman olganda, metodologiya inson faoliyatida yo‘l-yo‘riq bo‘ladigan tamoyillarni belgilaydi. Uning funksiyasi ikki tomonlama bo‘lib, u faoliyatni ichki tashkil etilganlik nuqtai nazaridan tavsiflash va baholash imkonini beradi, shu bilan birga, unga amal qilinishi kerak bo‘lgan tavsiyalar va qoidalarni ishlab chiqadi.

Metodologiya — bu muayyan fan yoki bilim sohasi doirasida qo‘llaniladigan usullar majmui bo‘lib, to‘g‘ri shakllantirilgan tamoyillar va tashkil etish usullarining tizimi barcha insoniy faoliyat turlarini tartibga solish va qurish asosida yotadi. Odatda metodologiya faoliyatni ichki tuzilmasi jihatidan tasvirlash va baholash imkonini beradi, shuningdek, u tegishli sohadagi ishni tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan tavsiyalar va qoidalarni ishlab chiqiladigan yagona monolit sifatida namoyon bo‘ladi.

“Metodologiya nazariya va metod o‘rtasidagi munosabatlarni, shuningdek, bilishda amaliyotning rolini to‘g‘ri ifodalaydi. Agar nazariya – bilish jarayonining natijasini anglatadigan bo‘lsa, metodologiya – ushbu bilimga erishish va uni qurish usullarini belgilaydi”

Dolzarb vazifalardan biri sifatida oliy ta’lim tizimida bo‘lajak pedagoglarni zo‘ravonlikni oldini olishga tayyorlashning faoliyatini boshqarish mexanizmini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mexanizm ostida ta’lim maqsadlariga erishishni ta’minlaydigan majburiy fanlari bo‘yicha o‘quv jarayonini samarali tashkil etish vositasi nazarda tutiladi. Bu mexanizm, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish, mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ma’lumki, tizimli yondashuvning quroli tizimli tahlil bo‘lib, u murakkab ob’yektlarni o‘rganishning usul va vositalari majmuini o‘z ichiga oladi. Tizimli tahlil, o‘quv jarayonining barcha jihatlarini bir butun sifatida ko‘rib

chiqishga imkon beradi va bu jarayonda o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini yaxshilashga yordam beradi. Mazkur majmuaga modellashtirish, loyihalash, evristik va bir qator boshqa usullar kiradi. Ushbu usullar, o‘quv jarayonini yanada samarali va mazmunli tashkil etishga yordam beradi. Bu jarayon, ta’limning zamonaviy talablariga mos ravishda o‘quv jarayonini takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Tizimli tahlil yordamida o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish va ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkoniyatlari aniqlanadi.

Tadqiqot muammosining o‘ziga xosligi va mazmunini tushuntirishga aksiologik yondashuv uning xususiyatlarini qadriyat tushunchasi atrofiga to‘plash imkonini beradi. Qadimgi antik faylasuflar, masalan, Suqrot va Platon, shuningdek, qadriyatli yondashuv Dekart, Spinoza, Lokk asarlarida ham o‘z aksini topgan. Pedagogikada aksiologik yondashuv o‘quv jarayonini o‘rganish va tashkil qilishni o‘rganishning rahbariy yo‘riqnomasi sifatida ifodalanadi.

Bu barcha pedagogik jarayonlar va hodisalarning ko‘rib chiqilishi ularning qadr-qimmatligi, ijobiy ahamiyati, shaxs va jamiyat ehtiyojlarini qondirish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilishi zarur. Qadriyatlar toifasi umumilmiy tushunchalar qatoriga kirgan bo‘lib, uning metodologik ahamiyati pedagogika uchun katta ahamiyatga ega. Qadriyatlar muammosi bo‘yicha mamlakat pedagogik tadqiqotlari orasida V.I.Andreyev, I.F.Isayeva, N.L.Xudyakovalarning tadqiqotlari eng katta qiziqish uyg‘otadi.

Tamoyil – bu asosiy qoidalar, muayyan yo‘l-yo‘riqlar, harakatning umumiy mezonlaridir. Pedagogikada tamoyil – bu ta’lim-tarbiya jarayonida doim rioya qilinadigan asosiy qoidalar, yo‘nalishlar bo‘lib, ta’lim jarayonini samarali tashkil qilishga qaratilgan. Asosiy tamoyillarni aniqlash, o‘quvchilarning axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratishga yordam beradi. Bu tamoyillar, o‘quv jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash, ularning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan. Nazariy tahlil esa, tamoyillarni amaliyotga joriy etish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni taqdim etadi. Shu bilan birga, bu tahlil o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun yangi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon beradi. Shunday qilib, bo‘lajak pedagoglarni zo‘ravonlikni oldini olishga tayyorlashning kompetensiyasini rivojlantirishda asosiy tamoyillarni aniqlash va ularni nazariy jihatdan tahlil qilish, ta’lim jarayonini yanada samarali va mazmunli qilishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu tamoyillarni amaliyotga joriy etish va ularning samaradorligini o‘rganish zarur. Yuqorida keltirilgan dalillar

asosida, oliy ta’limda maxsus kurslar, interaktiv metodikalar va xalqaro tajribalardan foydalanish zarur.

Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak pedagoglarni zo‘ravonlikni oldini olishga tayyorlash – bu faqat ma’naviy-axloqiy tarbiya emas, balki jamiyat xavfsizligi, sog‘lom avlod va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi zarur yo‘nalishdir. Mazkur maqolada keltirilgan pedagogik shart-sharoitlar asosida shakllangan yondashuvlar oliy ta’lim muassasalarida amaliyotga tatbiq etilsa, o‘qituvchi kadrlarning profilaktik salohiyati sezilarli darajada oshadi. Pedagogik adabiyotlarda zo‘ravonlik – bu shaxsga nisbatan kuch ishlatish, ruhiy bosim o‘tkazish, tahdid qilish kabi salbiy xatti-harakatlar majmuasi sifatida izohlanadi. Ta’lim muhitida esa bu holat ko‘proq o‘quvchilar o‘rtasida yoki o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarida kuzatiladi. UNICEF va UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha har 3 o‘quvchidan biri o‘qish davomida zo‘ravonlikka uchragan.

Pedagogikada “sharoit” tushunchasi ta’lim tarbiya jarayonining samarali amalga oshishi va rivojlanishini ta’minlaydigan muhit, moddiy -texnik baza, psixologik hamda tashkiliy omillar yig‘indisi sifatida talqin etiladi. Pedagogik sharoitlar uch turga bo‘linadi: moddiy-texnik, psixologik, ijtimoiy.

“Shart-sharoit” – bu ta’lim-tarbiya jarayonining to‘laqonli, samarali amalga oshirish uchun ichki va tashqi omillar birligidir.

Ilmiy pedagogik manbalarda “pedagogik sharoit” atamasi turlicha ta’riflar bilan izohlanadi (A.P.Belyayeva [111], A.Y.Nain [136], E.V.Yakovlev [153] va boshqalar). Muayyan faoliyat samaradorligini belgilovchi shart sharoitlarni aniqlash masalasi turli yondashuvlar asosida talqin etiladi. Pedagogik shart-sharoitlar bo‘lajak pedagoglarni zo‘ravonlikni oldini olishga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari hal qiluvchi omillardan biri sanaladi, chunki ular ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi ichki va tashqi omillar majmuini ifodalaydi. Ichki shart-sharoitlar, avvalo, ta’lim jarayonining o‘zida shakllanadigan tashkiliy-pedagogik, metodik va ergonomik imkoniyatlarni qamrab oladi.

Tashkiliy-pedagogik jihatlar o‘quv mashg‘ulotlarini maqsadga muvofiq tashkil etish, o‘quv materiallarini tizimli taqsimlash va o‘quvchilar faoliyatini samarali boshqarish orqali ularni axborotni izlash, tanlash va undan ongli foydalanishga yo‘naltiradi. Bu jarayon, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Metodik sharoitlar esa ta’lim metodlari va interfaol usullarning oqilona qo‘llanilishini ta’minlab, o‘quvchilarda axborotni tahlil qilish, qayta ishlash hamda uni zamonaviy vositalar yordamida taqdim etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishga va ularni mustaqil o‘rganishga rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, pedagogik shart-sharoitlar bo‘lajak pedagoglarni zo‘ravonlikni oldini olishga tayyorlash muhim rol o‘ynaydi va ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda zaruriy asoslarni ta’minlaydi. Shu bilan birga, tashqi pedagogik sharoitlar ham bu jarayonni kengroq ijtimoiy va iqtisodiy kontekstda qo‘llab-quvvatlaydi. Siyosiy va iqtisodiy sharoitlar ta’lim sohasida qabul qilinayotgan qarorlar, davlat tomonidan yaratilayotgan moddiy-texnik baza va raqamli infratuzilma orqali ta’lim jarayonini barqaror rivojlantirishga yordam beradi. Ijtimoiy omillar esa jamiyatdagi raqamli madaniyat, axborot xavfsizligi masalalariga munosabat va ota-onalarning qo‘llab-quvvatlashi orqali o‘quvchilarning axborotga nisbatan ongli yondashuvini shakllantiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2909–son

2.“Oliy ta’lim muassalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora–tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 5-iyundagi PQ–3775–son qaror

3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059–son qarori

4. Abdullayeva O‘. Pedagogik texnologiya. – T.: TDPU, 2015, 166 b.: R

5.A.Mavlonova,N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova , M.K.Shirinov, S.Hafizov. Umumiy pedagogika.-T .:“Fan va texnologiya”, 2018, 528 bet.: M.M. Axmetjanov, Sh.Sh. Olimov, S.S. Avezov. Pedagogik mahorat. O‘quv qo'llanma. T.: LESSON PRESS, 2018, 92 bet.:

6.Xoliqov A. Pedagognk mahorat. O‘quv qo‘llanma. T.: «Iqtisod-moliya» nashriyoti, 2011,424 bet.: Ma’murov B.B. O‘quvchi shaxsiga yo’naltirilgan o‘quv biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart–sharoitlari. Monografiya. – T.: «Nihol», 2014..:

7.Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: «Nihol», 2013.: Омонов Ҳ.Т, Хаттабов М.Б. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.T.: «Iqtisod-moliya», 2016. 200 bet.:

8.Sultanova N. BOLALARGA NISBATAN QO‘LLANILADIGAN ZO‘RAVONLIK HOLATLARINING OQIBATLARI. INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS ISSN: 3030-332X Impact factor: 8,293 Volume 10, issue 2, March 2025

9.FORM, METHODS, AND MEANS OF PREPARING FUTURE

TEACHERS TO PREVENT VIOLENCE IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM 531-535.